

## BUZOQLARNI O‘STIRISHDA SUT ALMASHTIRGICHDAN FOYDALANISH

**B.X.Gulbutayev**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
Zooinjeneriya, veterinariya va ipakchilik kafedrası, assistenti

[Gulbutayevbekmurod@gmail.com](mailto:Gulbutayevbekmurod@gmail.com)

**Sh.B.Kurbonov**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
Zooinjeneriya, veterinariya va ipakchilik kafedrası, assistenti

[Sh.Kurbonov@gmail.com](mailto:Sh.Kurbonov@gmail.com)

**B.B.Dexqonov**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti, assistenti

[boburdehqonov1313@gmail.ru](mailto:boburdehqonov1313@gmail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada xorijdan olib kelingan simmental zotli sigirlardan olingan buzoqlarni o‘stirishda sut almashtirgichlardan foydalanish, sut almashtirgich tarkibi, oziqlantirish sxemasi va qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Аннотация.** В статье представлена информация об использовании заменителей молока, составе заменителя молока, схеме кормления и применении при выращивании телят симментальской породы, завезенных из-за рубежа

**Summary.** The article provides information on the use of milk substitutes, the composition of milk substitutes, feeding scheme and application in the cultivation of calves of the Simmental breed imported from abroad

**Kalit so‘zlar:** Profi Milk “LactoStandart”, oziqa, to‘yimlilik, o‘shish, rivojlanish, tirik vazn.

**Ключевые слова.** Профи Милк «ЛактоСтандарт», кормления, рост, развития, живой вес

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-sonli “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga asosan veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda 2022-2023 yillarda har bir tumanda kamida 1 tadan go‘shat va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni tashkil etish; ozuqa bazasini

yetishtirish uchun sug'oriladigan yer maydonlari yetishmovchiligi mavjud bo'lgan tumanlarda go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini to'liq qondirish maqsadida kooperatsiya usulida go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashni yo'lga qo'yish kabi imkoniyatlar yaratilmoqda [1].

Surxondaryo viloyati o'zining iqlim sharoiti va ekologik holati bilan respublikaning boshqa viloyatlaridan keskin farq qiladi. Hozirgi kunda viloyatda chorvachilikning asosiy sohasi qoramolchilik ham rivojlanib bormoqda. Respublikamizning barcha toifa xo'jaliklarida jami qoramollar bosh soni 2024 yil 1 yanvar holati bo'yicha 14557,7 ming boshga teng bo'lgan. Viloyatda esa bu ko'rsatkich turli toifadagi xo'jaliklarida jami 1660,6 ming bosh qoramol, shundan 724,3 ming bosh sigirlar urchitib kelinmoqda [2].

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqotlarning tajriba qismi asosan Samarqand viloyati Pstdarg'om tumaniga qarashli "Eldor K" fermer xo'jaligi sharoitida tashkil qilindi. Har xil ishlab chiqarish tipiga mansub simmental zotli buzoqlarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari 2 ta nazorat va tajriba guruhlariga bo'lib o'rganildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Qoramolchiligi rivojlangan mamlakatlarda nasldor yosh mollarni parvarishlashga alohida e'tibor beriladi va zotlar bo'yicha maxsus programmalar ishlab chiqilgan. Bizning tajribamizdagi urg'ochi tanalarni ham o'sish va rivojlanishiga oziqlantirishning o'rni kattaligini inobatga olindi.

Tajribadagi hayvonlar Ukrainadan ishlab chiqarilgan natural sut o'rmini bosuvchi sut almashtirgich Profi Milk "LactoStandart" dan 120 kunlik yoshigacha ichirildi. Profi Milk "LactoStandart" 1 kg lik polietilen paketlarga, 10 kg lik qog'oz xaltalarga yoki 20-25 kg lik polipropilen xaltalarga qadoqlangan. Undan foydalanish quyidagi ustunliklarga ega:

- infeksiyalar tarqalishi xavfini yo'qqa chiqaradi, buzoqlarning sog'lom o'sishini kafolatlaydi va xo'jalikda qoramollar podasining sog'lomlashishini ta'minlaydi.
- iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, 80 % gacha natural sutni tejash imkonini beradi;
- tarkibida o'suvchi organizmning to'laqonli rivojlanishi uchun talab qilinadigan barcha zaruriy moddalar muvozanatlashgan miqdorda saqlanadi;
- tarkibida o'simlik tolalari bo'lganligi tufayli buzoqlar oshqozon-ichak tizimining erta rivojlanishni va kelgusida dag'al va hajmli ozuqalarni yaxshi hazmlash imkonini beradi;
- yuqori kunlik o'sishni kafolatlaydi;
- doimiy yuqori sifatda bo'lishi kafolatlangan.

Quruq sut almashtirgichning tarkibida sut komponentlari, o'simlik oqsili va yog'lari, vitaminlar kompleksi, makro va mikroelementlar, prebiotiklar majmuasi, xushbo'y va

yoqimli ta'm beruvchi moddalar mavjud. Sut almashtirgichning tarkibida konservantlar, stabilizatorlar va antibiotiklar yo'q.

Profi Milk "LactoStandart" sut almashtirgichi bevosita buzoqlarga ichirish vaqtida tayyorlanadi. Quruq sut aralashmasini tayyorlash uchun 1 kg quruq aralashmaga 8 litr qaynoq (65<sup>0</sup>-70<sup>0</sup>C) suv solinib, yaxshilab aralashtiriladi va 40-42<sup>0</sup>C gacha sovitilib, buzoqlarga ichiriladi. Sut almashtirgich Profi Milk "Lacto Standart" tarkibi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

#### Sut almashtirgich Profi Milk "Lacto Standart" tarkibi

No	Ko'rsatkichlar		Miqdori
1	Almashinuvchi energiya	Mj	17,25
2	Xom proteinning massa ulushi	%	27,4
3	Xom yog'ning	%	12,9
4	Uglevodlarning massa ulushi	%	46,5
5	Xom kletchatkaning massa ulushi	%	1,4
6	Vitamin A	XB	50000
7	Vitamin D <sub>3</sub>	XB	10000
8	Vitamin E	Mg	108

Tayyorlangan aralashma buzoqlarga asta-sekin quyidagi sxema asosida berib o'rgatiladi:

- 1- kun 2,5 l natural sut va 0,5 litr tayyorlangan aralashma;
- 2 – kun – 2,0 litr tabiiy sut va 1,0 litr tayyorlangan aralashma;
- 3- kun – 1,5 litr tabiiy sut va 1,5 litr tayyorlangan aralashma;
- 4 – kun – 1,0 litr tabiiy sut va 2,0 litr tayyorlangan aralashma;
- 5 – kun – 0,5 litr tabiiy sut va 2,5 litr tayyorlangan aralashma beriladi.

Keyingi kundan boshlab to'liq sut almashtirgichga o'tiladi. Bunda har bir buzoqqa kuniga 6 litr 2 marta (3 litrdan) ichiriladi.

Sut almashtirgich quruq, nimqorong'i xonalarda 5-25<sup>0</sup> C haroratda, havo namligi 75 % bo'lgan sharoitda saqlanadi.

Unga ko'ra buzoqlarga tug'ilganining 10 kunligidan keyin nazorat guruhidagi urg'ochi tanalarga xo'jalikdagi oziqlantirish sxemasi bo'yicha, tajriba guruhidagi hayvonlarga sof sut o'rniga sun'iy sut 120 kunlik yoshiga qadar berib borildi. Oziqlantirish sxemasi quyidagi 2-3-jadvallarga keltirildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhidagi buzoqlar xo'jalikda tuzilgan oziqlantirish sxemasi bo'yicha 120 kunlik yoshigacha 550 kg yog'i olinmagan sut, qaynatilgan pichan suvi 40 kg, omixta em 76 kg, beda pichani 189 kg gacha berildi. Tajriba guruhidagi buzoqlarga esa 21 kunligigacha yog'i olinmagan sut 95 kg berilib, ikkinchi 10 kunlikdan sun'iy sut 2,5 kg berib o'rgatib borildi va 120 kunlik yoshigacha 625 kg ichirildi. Qolgan oziqlar xo'jalik sxemasi bo'yicha berildi.

**2-jadval**
**Xo'jalikda buzoqlarni 2 kunligidan 60 kunligiga qadar oziqlantirish sxemasi, kg**

Yoshi, kunlik	Qish davrida					Yoz davrida				
	Sut	Qayna tilgan pichan suvi	Omuxta yem	Beda pichani	Osh tuzi, g	Sut	Qayna tilgan pichan suvi	Omuxta yem	Beda pichani	Osh tuzi, g
2-10	5	o'rgatish	o'rgatish	o'rgatish	O'rgatish xohishi bo'yicha	5	o'rgatish	o'rgatish	o'rgatish	O'rgatish xohishi bo'yicha
11-20	7	0,5	o'rgatish	o'rgatish		7	0,5	0,2	o'rgatish	
21-30	7	0,5	0,4	0,5		7	0,5	0,2	0,4	
31-40	6	1,0	0,4	0,7		6	1,0	0,3	0,6	
41-50	6	1,0	0,5	0,8		6	1,0	0,4	0,8	
51-60	5	1,0	0,6	1,5		5	1,5	0,5	1,2	
61-70	4	-	0,7	1,8		4	-	0,7	1,8	
71-80	4	-	0,8	2,1		4	-	0,8	2,1	
81-90	3	-	0,9	2,4		3	-	0,9	2,4	
91-100	3	-	1,0	2,7		3	-	1,0	2,7	
101-110	3	-	1,1	3,0		3	-	1,1	3,0	
111-120	2	-	1,2	3,4		2	-	1,2	3,4	
Jami 118 kun	550	40	76	189		550	45	76	184	

**3-jadval**
**Tajribadagi buzoqlarni 2 kunligidan 60 kunligiga qadar oziqlantirish sxemasi, kg**

Yoshi, kunlik	Qish davrida						Yoz davrida					
	Sut	Sun'iy sut	Qayna tilgan pichan suvi	Omuxta yem	Beda pichani	Osh tuzi, g	Sut	Sun'iy sut	Qayna tilgan pichan suvi	Omuxta yem	Beda pichani	Osh tuzi, g
2-10	5	-	o'rgatish	o'rgatish	o'rgatish	O'rgatish xohishi bo'yicha	5	-	o'rgatish	o'rgatish	o'rgatish	O'rgatish xohishi bo'yicha
11-20	4,5	2,5	0,5	o'rgatish	o'rgatish		4,5	2,5	0,5	0,2	o'rgatish	
21-30	-	7	0,5	0,4	0,5		-	7	0,5	0,2	0,4	
31-40	-	6	1,0	0,4	0,7		-	6	1,0	0,3	0,6	
41-50	-	6	1,0	0,5	0,8		-	6	1,0	0,4	0,8	
51-60	-	6	1,0	0,6	1,5		-	6	1,5	0,5	1,2	
61-70	-	6	-	0,7	1,8		-	6	-	0,7	1,8	
71-80	-	6	-	0,8	2,1		-	6	-	0,8	2,1	
81-90	-	6	-	0,9	2,4		-	6	-	0,9	2,4	
91-100	-	6	-	1,0	2,7		-	6	-	1,0	2,7	
101-110	-	6	-	1,1	3,0		-	6	-	1,1	3,0	
111-120	-	5	-	1,2	3,4		-	5	-	1,2	3,4	
Jami 118 kun	95	625	40	76	189		95	625	45	76	184	

Birinchi davrda sut bilan boqish davri 120 kun davom etadi. Bu davrda asosan nazorat guruhi sut bilan tajriba guruhi ikkinchi o'n kunlikdan sun'iy sut bilan boqiladi.

Ikkinchi davrda yosh mollar to'liq ravishda o'simliklardan tayyorlangan ozuqalarga o'tadi va bu xol oshqozon oldi qismining rivojlanishini shuningdek, ovqat hazm qilish shiralarning ajralishini tezlashtiradi. Odatda bu davrda oziqlantirish dasturi 3-4 xil ozuqalardan (pichan, silos, senaj, konsentratlar) foydalanishni ko'zda tutadi.

Uchinchi davr muskullar o'sishining faolligi, organizmdagi tayanch to'qimalarining (suyak, tog'aylar) rivojlanish xususiyati bilan ajralib, keyinchalik o'sish darajasini va tirik vaznning katta bo'lishini belgilab beradi. Bu davrning davom etishi 4-8 oy. O'rtacha bir kunlik o'sish 600-800 gramm oralig'ida bo'ladi.

To'rtinchi davri o'zidan yuqori darajada energiyani mujassamlashtirgan ozuqalarning qo'llanilishi, hayvonning tirik vaznini oshirib, tana tuzilishini mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlaydi va pushtdorligining yaxshilanishini rag'batlantiradi, urug'lanish uchun har tomonlama tayyor bo'lishini ta'minlaydi. Ana shularga e'tibor qaratib oziqlantirish va asrashni tashkil qilsak, hayvonlar yuqori tirik vaznga ega bo'ladi.

**Xulosa.** Xo'jaliklarda buzoqlarni o'stirishda sut o'rniga Ukrainada ishlab chiqarilgan sut almashtirgich Profi Milk "LactoStandart" dan ikkinchi 10 kunlikdan 120 kunlik yoshigacha foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-121-sonli "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. 8 fevral 2022 y.
2. Amirov Sh.K., Qurbonova Sh.E., Gapparov Sh.T., Javxarov O.Z. O'zbekistonda chorvachilikning holati va rivojlanish istiqbollari. "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand. 2022 yil 12-14-may.
3. Qurbonova Sh.E. Nurmuhammedova R.F. Sayfullaeva Yu.Z. /Etiological indicators of the Simmental breed of cattle/ Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. Vol. 3. April 2022. ISSN: 2771-8840. P. 42-44.